

JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O‘ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TARG‘IBOT MAQSAD MUDDAOSI

Poziljonov Javoxirbek Qosimbek o‘g‘li
Andijon Davlat pedagogika instituti magistranti
Jpoziljonov13@gmail.com

Ikki asr oralig‘ida o‘z tarixiy faoliyatini olib borgan jadidchilik insoniyat tarixiga O‘rta Osiy o‘yg‘onish davri marifatparvarlik xarakati tavsirini olib kirdi. XIX asr oxirlarida shakillagan bu xarakter, dunyodagi shu asrning asosiy iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlari natijasida yani, bozoriq iqtisodiyotining keskin shakillanishi natijalarida yuzaga kelganligini ko‘ramiz. Bu davirdagi mulkka nisbatan yuzaga kelgan munosabatdagi o‘zgarishlar insonlar o‘rtasidagi tabaqalanish tafvutini aniq ko‘rsatib bera boshladi va natijada uniga yangicha tus bergayotganini ko‘rish mumkin. Dunyo yangi va eski dunyoga bo‘lindi, Yevropa mamalkatlarida vujudga kelgan liberalizm siyosatnining barcha munosabtlarga kirib kelishi, O‘rta asrlar tabaqalanish tartibini nomaqbulligini ko‘rsatib, oqibatda inqilobiy o‘zgarishlarini talab qila boshladi, bu esa o‘z o‘zidan ularga nisbatan yangicha mafkuraviy asoslarni talab qilardi. Natijada tez rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy tizimlar o‘zgarishiga olib kelayotgan intilishlar demokratik, yani xalqning erkinlikka intilish xarakterini jadallashishiga olib bora boshladi. Oqibatda jamiyat mulkdorlari va mulksizlar o‘rtasida kurashlar avjiga chiqdi.

Bu kurashning asosiy mazmuni o‘rta asr mulkiy tengsizligini yo‘qotib undagi zadogonlar xukumronligiga chek qo‘yish talabi birinchi galdagi vazifa bo‘lib qoldi. Bu vazifani amalga oshirish albatta dunyodagi o‘rta asrlardan boshlab shakillanib kelgan mustamlakachilik tizimini xam tubdan tugatishni talab etar edi. Zero shundoq ekan XIX asr o‘rtalaridan boshlab Rossiya Chor xuqumati istilo qilgan mustamlaka xududlarda xam istebdodga qarshi dastlabki mafkuraviy g‘oyalar paydo bo‘la boshladi, bulardi biri, Turkiston o‘lkasidagi “jadidchilik” xarakati bo‘ldi.

Yaxshi malumki bu mafkura va xarakter XIX asr o‘rtalaridan boshlab Tavrida yani Qirm yarim orolida qrim-tatar marifatchilari tamonidan keng ko‘llanib targ‘ib qilina boshlandi. Qrim – tatar xalqining xam taqdiri O‘rta Osiyo xalqi taqdiridan bir oz oldin mustamlaka xolatiga tushgan edi. Xalqning o‘z xayotidagi istebdod dardidan qutilish xoxshi doimo jo‘sh urib turadi, ammo zo‘ravonlikka qarshi chiqa olmaslik, kurasha olish imkoniyatining cheklanganligi to‘xtalib qolishga olib borardi. Bunday xolatni biz Turkiston xalqining xayotida XIX asrning to‘la ikkinchi yarmi va deyarli XX asrning katta davrida ko‘rishimiz mumkin.

Muayyan g'oya, qarash, fikr, fakt, argumentni tarqatish, uni jamoatchilik ongiga singdirish va shu yo'l bilan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruriyati insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan. Aksariyat hollarda jamiyatni boshqarish, barqarorlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirish, ma'lum ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalar yechimi shuni taqazo etgan. "Chunki jamoatchilik fikrisiz jamiyat taraqqiyotini amalga oshirib bo'lmazligi oddiy haqiqatdir." Targ'ibot sistemasining shakllanishiga sabab bo'lgan asl muddao ham shundan iborat.¹

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot paradigmalari o'zgarib borgan, taraqqiyotning yangi va yangi modellari vujudga kelgani, diniy qarashlar, g'oya va mafkuralar rivojlangani, manfaatlar to'qnashuvi keskin tus olgani sayin targ'ibot sistemasi ham murakkablashib bordi.

Inson nafaqat Xudo oldida, balki qonun oldida ham teng bo'lmog'i darkor; inson insonning quli, cho'risi emas, birodari bo'lmog'i zarur; aholining ayrim tabaqalari –zodagonlar va ruhoniylarga berilgan tabaqaviy imtiyozlarni bekor qilish lozim, degan g'oyalarni targ'ib qildilar. Ushbu g'oyalar targ'ibotning sharofati bilan tor ilmiy doiralardan chiqib, keng xalq ommasida yoyildi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridagi ma'rifatparvarlik g'oyalari Markaziy Osiyoda ham tarqaldi. Buning qator ijtimoiy va siyosiy sabablari bor edi. Chunonchi, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum inqirozga yuz tutdi, fuqarolarning turmush darajasi keskin pasaya boshladi. Chor Rossiyasi tomonidan amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosati esa vaziyatni o'nglash uchun hech qanday imkoniyat qoldirmadi. Shuning uchun ham jamiyatning ilg'or vakillari mamlakatni qoloqlik botqog'idan olib chiqish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishning yagona yo'lini ma'rifatdan izlay boshladilar. Ilg'or ziyolilarning bu intilishlari qisqa muddatda mintaqadagi ma'rifatparvarlikni katta g'oyaviy-nazariy oqimga aylantirdi. Markaziy Osiyo ma'rifatparvarligining birinchi bosqichida mavjud ijtimoiy tuzum tanqidiga katta e'tibor berildi, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy qoloqlikdan qutulishning yagona yo'li ma'rifat bilan bog'liqligi asoslab berildi. Ikkinchi bosqichda esa ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalq orasida targ'ib qilish ishlariga e'tibor qaratildi. Bunda jadidchilik harakatining roli nihoyatda katta bo'ldi. "Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg'or ilm-fan, madaniyat-ma'naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy

¹ 1 Язданов У. Ўзбекистонда жамаоатчилик фикрини ривожлантириш масалалари.- Т.: Нишон-ношир, 2015.- Б.3.

qoloqlikka, Chor Rossiyasining mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqaror etishga qaratilgan demokratik harakat edi.”²

Jadidchilik harakati tomonidan amalga oshirilgan targ‘ibot kishilar dunyoqarashi va ruhiyatini tubdan o‘zgartirishda, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining jamiyat hayotidan o‘rin olishida, milliy mustaqillikning ma’naviy-madaniy va g‘oyaviy-nazariy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hozirgi zamon targ‘iboti o‘zining plyuralistik xarakteri, targ‘ib etilayotgan g‘oyalarning turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

Jadidlar ma’rifatparvarlik targ‘iboti maqsad muddaosi bugunga qadar o‘z dolzarbligini va amaliy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, buni biz dalatimiz rahbari Prezident Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan boshlangan isloxiy o‘zgarishlarimiz konsepsiyalari va tamoillarida ko‘ramiz. Yangi O‘zbekiston tarqatqiyot strategiyasining amaliy negizlari aynan jadidlar boshlagan targ‘ibot jabxalariga qaratilgin. Bunda strategiyaning “72-maqсад: Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish.” deb olingani, davomida 73 – maqsad kilib, “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish.” Shuningdek “Tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.”, “Madaniyat va san‘at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va ob‘ektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.”, “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish. Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish. Milliy kino san‘atini rivojlantirish.”³ Kabi maqsadlarni qo‘yilgani usha davirda jadidlar ko‘ra olgan targ‘ibot usullari hozirda xam zarur vosita va zaruriy manba ekanligini bilish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimova D.A. Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformy, boqba za nezavisimosty. –T.: Uzbekistan, 2000.
2. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan. (Jadidchilik tarixidan lavhalar). –T.: SHarq. 2001.
3. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. –T.: «Ma’naviyat», 2003.
4. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: “Universitet”, 2006.

² Чориев А., Чориев С. Ренессанс даври Европа фалсафаси.- Т.: Тафаккур қаноти, 2015.

³ 2022 — 2026 ЙИЛЛАРГА МЎЛЖАЛЛАНГАН ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ ТЎҒРИСИДА. <https://lex.uz/uz/docs/5841063#5844198>

5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2 nashri. –T.: Ma'naviyat. 1999.
6. Gasprinskiy (Gasprali). Hayot va mamot qissasi. Tanlangan asarlar – T., “Ma'naviyat”, 2006.
7. Rizaev SH. Jadid dramasi. –T.: «SHarq», 1997.
8. Fitrat A. Tanlangan asarlar 1-jild. She'rlar, nasriy asarlar, dramalar. –T.: Ma'naviyat. 2000.
9. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 2-jild. Ilmiy asarlar. -T.: Ma'naviyat. 2000.
10. www.Ziyo-net.uz
11. www.FvaT.uz
www.Google.uz